



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 05 | pp. 83-90 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SUG'URTA TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH



N.B. Abdusalomova

TDIU "Buxgalteriya hisobi" kafedrasida mudiri, i.f.d., professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish zarurati, sug'urta tashkilotlarida hisobni tashkil etishdagi muammolar, 17-sonli MHXSni o'ziga xos xususiyatlari, sug'urta shartnomalarini hisobga olish qoidalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, sug'urta, sug'urta shartnomalari, moliyaviy holat, foyda va zarar.

Kirish.

Sug'urta o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra har qanday jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tizimining zarur elementi bo'lib, kutilmagan hodisalar sodir bo'lganda mulkiy manfaatlar buzilgan taqdirda kafolatlarni ta'minlovchi asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining hozirgi bosqichida sug'urtaning roli sezilarli darajada oshib bormoqda va tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki bu, bir tomondan, iqtisodiyotni milliy himoya qilish tizimi bo'lsa, boshqa tomondan, u muhim ichki investitsiya resursi. Iqtisodiyotning nisbatan yosh tarmog'i bo'lgan sug'urta hali uni rivojlantirish va takomillashtirish, xorijiy sug'urta kompaniyalari bilan muvaffaqiyatli raqobatlashish imkonini beradigan zarur uslubiy ishlanmalarga ega emas. Bundan tashqari, alohida tizim yaratishga qaratilgan mahalliy sug'urta biznesini rivojlantirish bosh kompaniya tomonidan investitsiya kompaniyalarining sho'ba korxonalarini jalb qilgan holda daromadlarni markazlashtirilgan holda boshqarishni nazarda tutadi.

Sug'urtalovchining boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlashning asosiy manbai hisob va tahlil tizimi hisoblanadi. Bu faoliyatni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonini axborot bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan buxgalteriya hisobida ma'lumotlarni aks ettirish usullari to'plami. Buxgalteriya hisobi va tahlil tizimi qaror qabul qilish paytida tashkilotning moliyaviy-iqtisodiy jarayonlari to'g'risida tezkor ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Shuningdek, u sug'urta tashkilotining statistik ko'rsatkichlarini hisoblash uchun asosiy ma'lumot manbai bo'lib, uning asosida aktuar hisob-kitoblarni amalga oshirish, tarif stavkalarining hajmi va tuzilishini aniqlash, sug'urta kompaniyasining, umuman sug'urta biznesi moliyaviy barqarorligiga erishish uchun statistik baza shakllantiriladi va takomillashtiriladi.

Adabiyotlar sharhi.

Aksariyat soha mutaxasislari buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etishni cheklangan muqobil hisob va hisobot usullarini ishlab chiqish sifatida belgilaydi. Uning mohiyati dunyo miqyosida qo'llaniladigan yagona buxgalteriya standartlari to'plamini yaratishdan iborat bo'lib, ularni milliy buxgalteriya hisobi tizimlariga joriy etish ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlashtirishning zarur shartlari iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi va milliy buxgalteriya hisobi tizimlaridagi farqlardan kelib chiqadigan moliyaviy hisobotlarning nomuvofiqligini bartaraf etish muammosidir. Ushbu sohada tadqiqot olib borgan mualliflarning fikrlariga murojaat qiladigan bo'lsak, V.T.Chaya tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilish metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi [1]:

1. Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot va boshqa hisobotlarni tuzish uchun schyotlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish, shuningdek, moliyaviy hisobotlarda MHXS talablariga muvofiq chetlanishlarni aniqlash imkonini beruvchi tashkilotning buxgalteriya hisobi va hisob siyosatining holati.

2. Buxgalteriya hisobi tizimida aylanma qaydnomalarni shakllantirish, buxgalteriya hisobi qoidalari va MHXSga muvofiq iqtisodiy mazmuni bo'yicha xo'jalik operatsiyalarini aks ettirishdagi farqlarni ko'rsatadigan ishchi hujjatlarni tuzish.

3. Har bir buxgalteriya schyotlarini iqtisodiy mazmuni bo'yicha MHXS talablari darajasiga yetkazish uchun tuzatuvchi yozuvlarni amalga oshirish.

A.X.Popovani ta'kidlashicha, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, odatda, "dunyoning aksariyat mamlakatlarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun xo'jalik operatsiyalari va moliyaviy ko'rsatkichlarni saralash, tan olish, baholash va oshkor qilish bo'yicha umume'tirof etilgan qoidalar to'plami" deb tushuniladi [2].

Xalqaro standartlar quyidagi kontseptual asoslarni o'z ichiga oladi: asosiy sifat xususiyatlari, taqdim etilgan ma'lumotlarning ahamiyati, uning ishonchligi, "moliyaviy hisobotning elementlari, aktivlar va majburiyatlarni baholashga yondashuvlar, kapital va kapitalni saqlash tushunchalari" [3].

O.G. Jitluxina ta'kidlashicha, "asosiy sifat xususiyatlari bir qator boshqa xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Demak, ma'lumotlarning dolzarbligiga prognoz qiymati, axborotning muhimligi ta'sir qiladi". Taqdim etilayotgan ma'lumotga bir qator xususiyatlar ham ta'sir qiladi: ma'lumotlarning foydaliligi, xatolarning yo'qligi. Tayanch sifat xarakteristikasiga muvofiqlik ham kiradi. Ma'lumotning muvofiqligi uning asosida qarorlar qabul qilish va baholash mumkinligini anglatadi[4].

S.N.Tashnazarovning fikriga ko'ra, "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti fanining alohida tarmog'i bo'lib, moliyaviy hisobotning kontseptual asoslari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari zarurati, ishlab chiqilishi, ularning mazmuni, interpritatsiyasi va qo'llanilishining nazariy va metodologik masalalarini o'rganuvchi qismidir" [5].

Yu.A. Babaevning ta'kidlashicha, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun xalqaro printsipal tizimidir. Ular ko'plab mamlakatlarda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun asos sifatida keng qo'llaniladi va

qabul qilinadi. MHXS quyidagi hujjatlar yig'indisini aks ettiradi: MHXS qoidalariga kirish, moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish tamoyillari, standartlar va ularga tushuntirishlar. Shu o'rinda aytib o'tishimiz kerakki, moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini shakllantirish va hisobotni taqdim etish uchun yagona batafsil yoritilgan metodologiyani yaratish nuqtai nazaridan, buxgalteriya hisobi sub'ektlari darajasida (alohida korxonamiqyosida) xalqaro standartlarni qo'llashning mavjud amaliyotini qayta ko'rib chiqish talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Olib borilayotgan tadqiqot ishining metodologik asosi bo'lib, ma'lumotlarni kuzatish, to'plash, me'yoriy-hujjatlarni o'rganish va iqtisodiy munosabatlar rivojlanishidagi voqea hodisalarni, bog'liqlikni o'rganishga nisbatan yalpi va tizimli yondashuvchi umumiy ilmiy tamoyillar xizmat qiladi. Tizimli yondashuv sifatida su'urta tashkilotlari oliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobni tashkil etish mohiyatiga aniqlik kiritish, sug'urta shartnomalari bo'yicha hisobni yuritish konsepsiyasini tahlil qilish va baholash hisoblanadi. Qo'yilgan masalani yechimiga nisbatan yalpi yondashuv buxgalteriya hisobi, boshqaruv hisobi hamda iqtisodiyotning tayanch tarmog'i korxonalarini bosqatish sohasida tadqiqotlar o'tkazishni belgilab berdi.

Tahlil va natijalar.

MHXS asosida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy aktivlari va moliyaviy majburiyatlarini hisobga olish, hisobot berish, baholash tizimini yanada takomillashtirishsiz sug'urta tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish mumkin emas. Sug'urta tashkilotlari uchun xorijiy sheriklar bilan ishlash, investitsiyalarni jalb qilish va tashqi bozorlarga chiqish uchun zarur shart - bu xalqaro moliyaviy hisobot standartlaridan foydalanish. Qayd etish joizki, iqtisodiyotning moliya sektorida, jumladan sug'urta tashkilotlarida MHXSni joriy etish masalasi 2020-yil boshidan boshlab davlat darajasida muhokama qilinib kelinmoqda.

Moliya sektori tashkilotlarining, shu jumladan sug'urta tashkilotlarining aktivlari va passivlarini hisobga olish, hisobot berish, baholash tizimini takomillashtirish zarurati, sug'urta tashkilotlarida shu vaqtgacha amalda bo'lgan buxgalteriya hisobi, hisobot berish va baholash tizimi ayniqsa, aktivlar va passivlar qiymati haqidagi ma'lumotlarni o'lchash va oshkor qilish MHXS qoidalariga mos kelmaganligi sababli yuzaga keladi.

Hozirgi kunda sug'urta tashkilotlarida asosiy hisobni tartibga soluvchi standart bu 17-MHXS "Sug'urta shartnomalari" nomli stanadart hisoblanadi. 2023 yil 1 yanvardan boshlab sug'urta shartnomalarini hisobga olishning yangi standarti - 17-MHXS kuchga kirdi. 2023 yilgi MHXS bo'yicha moliyaviy hisobotlari yangi qoidalarga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan 2022 yilgi ma'lumotlarni taqdim etishi kerak.

17-MHXS kuchga kiringandan so'ng sug'urta kompaniyalari uchun asosiy o'zgarishlarni ko'rib chiqaylik.

Shartnomalar va ularning ko'rsatkichlarini hisobga olishning yangilangan yondashuvida eng muhimi har bir shartnomani bir nechta ko'rsatkichlar orqali ko'rib chiqish kerak: majburiyatlar, risklarni tartibga solish, marja. Ushbu ko'rsatkichlarning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

Risiklarni tartibga solish – tuzatishlar xavf va noaniqlik ta'sirini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ushbu hisob-kitob moliyaviy oqimlarning miqdori va muddatlaridagi noaniqlikni aks ettiradi.

Diskontlash - pulning vaqt qiymatini hisobga olgan holda tizimga tuzatishlar kiritish. Kelajakdagi moliyaviy oqimlar joriy bozor holatiga muvofiq joriy summalarga aylantiriladi.

Naqd pul oqimlari aylanishi - sug'urta shartnomalarini bajarish uchun mo'ljallangan moliyaviy oqimlarni ob'ektiv baholash. Ushbu hisob-kitob sug'urta shartnomalarini sotishdan kelib chiqadigan kutilayotgan pul oqimlari bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Shartnomada tavsiflangan xizmatlar uchun marja dastlabki tan olishda kutilayotgan kiruvchi va chiquvchi moliyaviy oqimlarning joriy qiymati o'rtasidagi ijobiy farqdir. Agar shartnomada ko'rsatilgan xizmatlar uchun marja salbiy qiymatga ega bo'lsa, u zarar/foydada tan olinadi va og'ir shartnomada aks ettiriladi.

Sug'urta kompaniyalarida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etishda barcha tarkibiy qismlarni aniqlash va toifalarga ajratish uchun sug'urta shartnomalari tahlilini o'tkazish, chegirma stavkalarini hisoblash va moliyaviy bo'lmagan risklarni tuzatish uchun yangi modellardan foydalanishga yordam beradigan ishchi tavsiyalarni shakllantirish alohida ahamiyatga ega.

To'g'ridan-to'g'ri ishtirok etgan shartnomalarni hisobga olishda sug'urta kompaniyasi moliyaviy oqimlarga nisbatan taxminlardan (hozirda dolzarb bo'lgan) foydalangan holda shartnomalarni qayta baholashi, shuningdek, chegirma stavkalari va risklarni qayta baholashi kerak. Kelgusi xizmatlarni baholashda o'zgarishlarning ta'siri xizmat taqdim etilgan vaqtda tan olinadi:

- variantlar va kafolatlar sug'urta shartnomalarini baholashda majburiy ravishda aks ettiriladi.
- ba'zi shartnomalarni qisqa muddatli bajarishda mukofot taqsimotiga asoslangan yondashuv qo'llanilishi mumkin. Bu soddalashtirilgan deb hisoblanadi, bu yerda asosiy tamoyil - ishlanmagan mukofotni zaxiralash hisoblanadi.
- sug'urta qoplamasining qolgan qismi uchun majburiyat. Bu majburiyatlarni to'lashda tan olinishi yoki shartnomaga ma'lum o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq alohida holatlar bo'lishi mumkin.

17-MHXS ni joriy etilishi hisobot shakllarini ham o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bunda hisobot shakllaridagi ko'rsatkichlar tarkibi o'zgargan. Hisobot yangi shakllarda taqdim etilgan. O'zgarishlarni quyidagi jadvallarda atroflicha yoritib berishga harakat qilamiz.

1-jadval.

Foyda va zararlar va umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot¹

№	4-BHXS	17-BHXS
1.	Olingan bonus – netto (aniq)	Sug'urta tushumlari
2.	Foizlar, dividendlar va boshqa investitsion daromadlar	Sug'urta bilan bog'liq xarajatlar
3.	Yetkazilgan zararlar, to'lovlar,	Yetkazilgan zararlar, to'lovlar, hisob-

¹ Muallif ishlanmasi

	hisob-kitob xarajatlari - netto	kitob xarajatlari
4.	Sug'urta zahiralari bo'yicha o'zgarishlar	
5.	Akvizitsion xarajatlari -Sotib olish xarajatlari sug'urta kompaniyasining yangi sug'urtalovchilarni jalb qilish va eskilarini saqlab qolish, shuningdek, yangi sug'urta shartnomalarini tuzish va amaldagilarini yangilash bilan bog'liq xarajatlaridir.	Akvizitsion xarajatlar-Sotib olish xarajatlari sug'urta kompaniyasining yangi sug'urtalovchilarni jalb qilish va eskilarini saqlab qolish, shuningdek, yangi sug'urta shartnomalarini tuzish va amaldagilarini yangilash bilan bog'liq xarajatlaridir.
6.	Foyda yoki zarar	Qayta sug'urtalashdan foyda yoki zarar
7.		Sug'urta operatsiyalari bo'yicha natija
8.		Investitsion daromad
9.		Moliyaviy xarajat
10.		Jami moliyaviy natija
11.		Diskont stavkasini o'zgarishi – sug'urta majburiyati bo'yicha
12.		Jami umumlashgan daromad

Jadvalni tahlil qilsak, asosiy o'zgarishlar quyidagilarda bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

- investitsiya qoldig'i sug'urta shartnomasi bo'yicha daromaddan chiqarib tashlanadi;
- xarajatlar va daromadlar yuzaga kelgan yoki olingan sifatida tan olinadi;
- sug'urtani moliyalashtirish bilan bog'liq xarajatlar sug'urta xizmati doirasida hosil bo'lgan umumiy summadan olinadi. Ushbu xarajatlar umumiy moliyaviy hisobotda yoki umumiy moliyaviy hisobotda va xarajatlar va buxgalteriya smetalarida aks ettiriladi, har bir alohida holatda bu joriy hisob siyosatining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi;
- mukofotlar eslatmalarda e'lon qilinadi.

Endi moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda bo'lgan o'zgarishlarni 2-jadvalda ko'rib chiqamiz.

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot²

4-BHXS	17-BHXS
Aktivlar	Aktivlar
Qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha aktivlar	Qayta sug'urtalash shartnomalari bo'yicha aktivlar
Kechiktirilgan sotib olish xarajatlari	Kechiktirilgan sotib olish xarajatlari
Sug'urta bo'yicha debitorlik qarzlari	
Majburiyat	Majburiyat

² Muallif ishlanmasi

Sug'urta bo'yicha majburiyat	Sug'urta bo'yicha majburiyat
Ishlanmagan mukofotlar zaxirasi	Qayta sug'urtalash bo'yicha majburiyat

Jadvalni tahlil qilsak, asosiy o'zgarishlar quyidagilarda bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

- aktiv sifatida tan olingan sug'urta shartnomalari portfelli majburiyat sifatida tan olingan portfellardan alohida taqdim etiladi. Bu sug'urta va qayta sug'urta shartnomalariga ham tegishli;

- sug'urta majburiyatlarini baholash jarayonida sotib olishdan olingan pul oqimlari, debitorlik qarzlari va olinmagan mukofotlar hisobga olinadi.

Shunday qilib, yangi standartlarga o'tishga tayyorgarlik ko'rish uchun birinchi navbatda yangi standartning ta'sirini baholashingiz kerak, so'ngra har bir mahsulot uchun uning oqibatlarini alohida baholash uchun sug'urta shartnomalarini tahlil qilishga o'tish kerak.

Yangi 17-MHXS o'tishda sug'urta kompaniyalari quyidagi tartiblarni ishlab chiqishi maqsadga muvofiq:

1. Sug'urta shartnomalarini hisobga olish qoidalarini ishlab chiqish.
2. Buxgalteriya hisobi operatsiyalari metodologiyasini ishlab chiqish.
3. Sug'urta bilan bog'liq barcha jihatlar bo'yicha korporativ siyosatni shakllantirish - shartnomalar, jarayonlar, taxminlar, nazoratni hisobga olish.
4. Moliyaviy hisobot shakllarini ishlab chiqish va sug'urta shartnomalari va moliyaviy hisobotlar uchun barcha zarur ma'lumotlarni ochish.
5. Hisobotlarni oshkor qilish bo'yicha ko'rsatmalar, metodologiya bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqish.
6. Tarmoq xodimlaridan tortib to yuqori boshqaruvgacha bo'lgan barcha darajadagi kadrlarni tayyorlash tizmini yaratish.
7. MHXSGa rioya qilish maqsadida kompaniyaning buxgalteriya siyosatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, MHXS bo'yicha alohida hisob siyosati va hisoblar rejasini ishlab chiqish.
8. MHXSGa muvofiq aktivlar, majburiyatlar va xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish bo'yicha kompaniyaning ichki qoidalarini ishlab chiqish.

Sug'urta kompaniyalari 17-MHXSGa muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda quyidagi afzalliklarni beradi:

- MHXSGa muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar korxonadagi ishlarning haqiqiy holatini eng ishonchli tarzda aks ettiradi, bu esa mulkdorga, rahbariyatga va investorlarga to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi;

- xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobot kredit olish uchun bankka taqdim etilganda eng foydali ma'lumotni taqdim etadi. Chunki bu yanada jozibador shartlarda kredit olishga yordam beradi;

- MHXSGa muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar kompaniyaning imidji va holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

– MHXSga muvofiq tayyorlangan hisobot aksiyadorlar, kreditorlar, xodimlar uchun shaffofdir va kompaniyalar uchun xalqaro bozorni ochadi;

– xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan hisobot qulay. Sababi axborotni taqdim etishning yagona shakli va metodologiyasidan foydalaniladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Respublikamizda MHXSni qo'llash jahon standartlari va buxgalteriya hisobi hamda hisobot tizimidagi farqlardan kelib chiqadigan ba'zi farq va qiyinchiliklarga ega.

Asosiy qiyinchilik shundaki, MHXSda moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini aks ettirishning aniq qoidalari yo'q, chunki ular hisobot berish tamoyillarini tartibga soladi, hozirgi milliy buxgalteriya hisobi amaliyoti esa birlamchi buxgalteriya hujjatlari va buxgalteriya hisobi shakllaridan boshlab butun buxgalteriya hisobi jarayonini aniq tartibga solishni ta'minlaydi. Xalqaro standartlar hisobot berish uchun umumiy talablarni belgilaydi va buxgalter aniq iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda ularni amalga oshirishga yondashuvni mustaqil ravishda belgilaydi.

MHXSni joriy etishdagi quyidagi muammolarni alohida ta'kidlash kerak:

- MHXSga muvofiq hisobotlarni tayyorlayotgan sug'urta kompaniyasi ikkita moliyaviy hisobot to'plamini (MHXS va milliy standartlarga muvofiq) ishlab chiqaradigan ikki tomonlama xarajatlarga duch kelmoqdalar. Shunga ko'ra, milliy standartlar bo'yicha hisobotlarni shakllantirish majburiyatini bekor qilish vaqt, mehnat va moliyaviy xarajatlarni tejashni ta'minlaydi;

- mamlakatimizning MHXS o'tishi respublikamiz va xalqaro hamjamiyat o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlash jarayonida muhim qadam bo'ladi. MHXSga muvofiq hisobotlarni tayyorlash majburiyati faqat xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida moliya bozorida, shu jumladan xalqaro bozorda faoliyat yurituvchilar uchun belgilanganligi sababli respublika miqyosida aksariyat korxonalarda milliy va xalqaro hisobotlarni paralell tuzishda muammolarni keltirib chiqaradi;

Shunday qilib, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari nafaqat sug'urta kompaniyalari, aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va yakka tartibdagi korxonalar uchun qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish vositasi va yuqori korporativ boshqaruv madaniyatining elementi sifatida, balki butun mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ham katta ahamiyatga ega, chunki ular shaffof va yanada ochiq biznesni shakllantirishga Respublikamizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasini ta'minlashda katta o'rin egallaydi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishda alohida ko'rsatkichlarni tahlil qilish tizimini ham ishlab chiqish zarur. Ya'ni sug'urta tashkilotlariga MHXS joriy etishda ko'rsatkichlarni tahlilini quyidagi ikkita yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchi yo'nalish quyidagi ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarining o'zgarishini taqqoslashni o'z ichiga oladi: olingan sug'urta mukofotlari miqdori; to'langan zarar; tuzilgan sug'urta shartnomalari soni; to'lovlar soni; qabul qilingan sug'urta javobgarligi hajmi; ishni yuritish xarajatlari. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra, bu ko'rsatkichlar sug'urta summalarining rentabellik darajasi, yo'qotish darajasi, olingan badallarning umumiy miqdorida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qilingan xarajatlar ulushi va jiddiylik koeffitsienti shakllanishining omil ko'rsatkichlari hisoblanadi. Sug'urta

kompaniyasining kiruvchi pul oqimlarini shakllantirishni ta'minlaydigan indikator qiymatlarining eng dinamik o'sish sur'atlariga olib keladigan bunday boshqaruv faoliyatini samarali deb atash mumkin.

Ikkinchi yo'nalish ko'rsatkichlarni shakllantirishning qat'iy belgilangan ko'p omilli modellarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi: sug'urta summalarini yo'qotish darajasi; olingan badallarning umumiy miqdorida ishni yuritish xarajatlarining ulushi; sug'urta hodisalarining jiddiylik koeffitsienti. Modellarining omiliy xarakteristikalari samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning belgilovchi xususiyatlari o'rtasidagi aniqlangan bog'liqlik asosida aniqlanadi. Ushbu uslubiy yordam sug'urta tashkiloti faoliyatining umumiy boshqaruv tizimiga kiritilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1.Чая В.Т., Чая Г.В. Международные стандарты финансовой отчетности. ISBN 978-5-4252-0182-9. – 368 с.

2.Попова А.Х., Аркаути В.В., Икаева Л.Э. Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО): проблемы внедрения и трансформации российской отчетности. // Пространство экономики. 2013. № 4-2. С. 215-218.

3.Новые международные стандарты финансовой отчетности. Перемены в стандартах страхования. // Международный бухгалтерский учет. 2011. № 25. С. 2-5.

4.Житлухина О.Г. О месте и особенностях производных финансовых инструментов в системе финансовых инструментов в аспекте международных стандартов финансовой отчетности. // Инновационная наука. 2015. № 3. С. 24-27.

5. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. – T.: “Navro’z” nashriyoti, 2016 y. 31-47-b.

6. Бабаев Ю.А., Петров А.М. Международные стандарты финансовой отчетности. Вузовский учебник. – М.: ИНФРА-М, 2012. – 398 с. (Babaev Yu.A., Petrov A.M. International Financial Reporting Standards. University textbook. –M.: INFRA-M, 2012. –398 p.)

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

